

REJA

1. Uchlari birinchi oktantda joylashgan to‘g‘ri chiziq kesmasini berilgan ikki proyeksiyasi asosida tahlil qilishga oid grafik masalalar yechish.
2. Uchlari turli oktantlarda joylashgan to‘g‘ri chiziq kesmasini berilgan ikki proyeksiyasi asosida tahlil qilishga oid grafik masalalar yechish.
3. To‘g‘ri chiziqning izlarini yasashga oid grafik masalalar yechish.

***Adabiyotlar:***

1. Murodov Sh.K., Hakimov L.Q., Xolmurzayev A. Chizma geometriya. –T.: “Iqtisod-moliya”, 2006-2008. (35-49-betlar).
2. Qulnazarov B.B. Chizma geometriya. –T.: “O‘zbekiston”, 2006. (16-26 betlar).
3. Исматулаев Р. Чизма геометрия. –Т.: “ТДПУ ризографи”, 2003. (21-32 betlar).

### **I.3-GRAFIK VAZIFALARНИ BAJARISHGA DOIR METODIK KO‘RSATMALAR.**

**1.3-masala.** *Ikki proyeksiyasi berilgan PK to‘g‘ri chiziq kesmasining yetishmovchi proyeksiyasi aniqlansin, tahlil qilinsin va fazoviy holati qurilsin (kesma uchlari I oktantda joylashgan).*



**1-bosqich.** Bu masalada kesma uchlari I oktantda joylashganligi uchun variantning berilgan epyuri va fazoviy holati, ya’ni koordinata o‘qlari chiziladi. Kesmaning  $P$  uchi  $H$  da,  $K$  uchi esa fazoda joylashgan.  $PK$  kesmaning gorizontal ( $P'K'$ ) va frontal ( $P''K''$ ) proyeksiyalari asosida uning profil ( $P'''K'''$ ) proyeksiyasi aniqlanadi. Buning uchun epyurda  $K'$  va  $K''$  nuqtalardan  $x$  o‘qiga parallel chiziqlar o‘tkazilib, ularni  $y$  va  $z$  o‘qlar bilan kesishgan  $Ky$  va  $Kz$  nuqtalari aniqlanadi. Epyurda  $O$  koordinata boshidan  $OKy$  radiusda aylana yoyi chizib  $W$  dagi  $y$  o‘qida  $Ky$  belgilanadi va undan  $z$ ,  $Kz$  dan esa  $y$  o‘qlariga parallel chiziqlar o‘tkaziladi. Bu to‘g‘ri chiziqlar kesishib, fazodagi  $K$  nuqtaning yetishmovchi  $K'''$  profil proyeksiyasini aniqlaydi.  $P$  nuqtaning yetishmovchi proyeksiyasi ham shu tartibda aniqlanadi. Kesmaning  $P$  uchi  $H$  ga tegishli bo‘lganligi uchun yetishmovchi  $P'''$  proyeksiya y o‘qida bo‘ladi. Endi kesma uchlaringin fazoviy holatini qurish uchun epyurdagi kesma uchlari koordinatalari o‘lchab olinadi va fazoviy holatdagi koordinata o‘qlariga mos ravishda o‘lchab qo‘yiladi. Qolgan jarayonlar 1.1-masalaning 1-bosqichidagi kabi amalga oshiriladi (3-rasm, a).

**2-bosqich.** Epyur va fazoviy holatlarda aniqlangan  $PK$  kesma uchlaringin bir nomli proyeksiyalari tutashtirilib (ko‘k rangda), gorizontal -  $P'K'$ , frontal -  $P''K''$ , profil -


$P'''K'''$  proyeksiyalar hosil qilinadi. Fazodagi  $P$  va  $K$  nuqtalar tutashtirilib (qizil rangda), kesmaning  $PK$  fazoviy o'rni chiziladi (3-rasm, b).

**3-bosqich.** Bu bosqichdagi jarayon 1.1-masalaning 3-bosqichidagi kabi amalga oshiriladi (3-rasm, c).


**4-bosqich.** Chizma taxt qilinadi, ya'ni chizma qog'ozini hoshiyasi, asosiy yozuv o'rni chiziladi va u belgilangan tartibda to'ldiriladi (3-rasm, d).



**NAMUNA**



c)



d)

Kesmani tahlil qilish

Chizdi	F.I.O	imza	sano
Tekshirildi	F.I.Q	imza	
O-qildi	F.I.Q		

3-rasm

NAMUNA

Har-bir talabanining jurnaldagi qayd raqami variant nomeri hisoblanadi.

2<sup>A</sup>-jadval

<b>1</b>	<b>2</b>	<b>3</b>	<b>4</b>
<b>5</b>	<b>6</b>	<b>7</b>	<b>8</b>
<b>9</b>	<b>10</b>	<b>11</b>	<b>12</b>
<b>13</b>	<b>14</b>	<b>15</b>	<b>16</b>

2<sup>A</sup>-jadval (davomi)

